
Farg'ona shahrilik o'quvchi xalqaro tanlovda g'olib bo'ldi

Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 25-IDUMning 9-sinf o'quvchisi A'zamjon Azimov 9 -14 noyabr kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan «OPEN ASIA» xalqaro ko'rik-tanlovida tasviriy san'at yo'nalishida 1-o'rinni egalladi.

Tanlovda ko'plab davlatlaridan iqtidorli yosh ishtirokchilar qatnashdi. Ular orasida A'zamjon Azimov munosib ishtirok etdi.

Ta'lim muassasasida A'zamjon Azimovni ko'tarinki, bayramona ruhda kutib olindi. Tadbirda maktab direktori F.Karimova so'zga chiqib, iqtidorli o'quvchini erishgan yutug'i bilan tabrikladi va maktab ma'muriyati tomonidan esdalik sovg'alar bilan taqdirladi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-16 11:00:53